

MEDIAMATNLAR TARJIMASI VA TAHRIRI

Shonazarova Dilnoza Dilshod qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

ORCID ID: 0000-0003-1482-5479

dilnozafsi29@gmail.com

+998903536175

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21214656>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediamatnlarni tarjima qilish va tahrirlash jaryonining nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritilgan. Maqolada mediamatnlarni tarjima qilishda uchraydigan leksik, semantik, pragmatik va uslubiy muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, mediamatnlar tahririning shakllari haqida ma'lumot beriladi. Undan tashqari, tahrir jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim jihatlar va ularning tarjima samaradorligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Mediamatn, mediamatnlar tarjimasi, tahrir, mashina tarjimasi tahriri, sun'iy intellekt, mashina tarjimasi, leksik-semantik muammolar, uslubiy moslik, tarjima sifati, tezkorlik.

Abstract. This article covers the theoretical and practical aspects of the process of translating and editing media texts. The article analyzes the lexical, semantic, pragmatic and methodological problems encountered in translating media texts. It also provides information about the forms of editing media texts. In addition, it analyzes the important aspects that should be paid attention to in the editing process and their role in ensuring the efficiency of translation.

Keywords. Media text, media text translation, editing, machine translation post-editing, artificial intelligence, machine translation, lexical-semantic problems, stylistic compatibility, translation quality, speed.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты процесса перевода и редактирования медиатекстов. Анализируются лексические, семантические, прагматические и методологические проблемы, возникающие при переводе медиатекстов. Также представлена информация о формах редактирования медиатекстов. Кроме того, анализируются важные аспекты, на которые следует обратить внимание в процессе редактирования, и их роль в обеспечении эффективности перевода.

Ключевые слова. медиатекст, перевод медиатекста, редактирование, машинный перевод, искусственный интеллект, машинный перевод, лексико-семантические проблемы, стилистическая совместимость, качество перевода, скорость.

Kirish. Bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan insonlarning axborot olish usuli ham o'zgarib, mediamatnlar ham axborot tarqatuvchi asosiy vositalardan biriga aylandi. Mediamatn bu axborot vositalari yoki turli platformalar hamda saytlar orqali tarqatiladigan turli shakldagi matnlardir. “Mediamatn tushunchasi hozirgi kunda zamonaviy jamiyatlardagi real voqelikni tasvirlash uchun kommunikativistika, jurnalistika nazariyasi, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo'llaniladi”¹. Mediamatnlar turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ya'ni ular nafaqat matn, balki video, audio yoki boshqa multimedia shaklida ham bo'lishi mumkin, ya'ni “bunda

¹ Shamaksudova S. X. Mediamatn shakllanishidagi asosiy talablar // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 5. — B. 37-50. <https://doi.org/10.36078/1732775727>

“matn” nafaqat yozma shaklda bo‘lgan ma’lumot, balki har qanday kommunikativ mahsulot (rasm, video, ovoz) ham hisoblanadi”².

Mediamatnlar tarjimasida qisqa vaqtda bajarilishi talab qilinganligi bois, tarjima ko‘pincha bir bosqichda amalga oshiriladi va tarjimon shu jarayonning o‘zidayoq tahrirlashni amalga oshiradi. Yoki tarjima matnlari tahriri ba’zi hollarda alohida bosqich sifatida qabul qilinmaydi. Shuningdek, tarjimonlar ba’zi hollarda sun’iy intellekt yoki mashina tarjimasidan foydalangan holda, undan olingan matnni shunchaki tahrirlash bilan cheklanishadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda tarjima tahririni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi deyishimiz mumkin:

1. Tarjima jarayonida tahrirlash.
2. Tarjimadan so‘ng alohida tahrirlash.
3. Mashina tarjimasidan so‘ng tahrirlash.

Bugungi kunda mediamatnlarning tahrirsiz uzatilishi, ba’zi hollarda esa hattoki mashina yoki sun’iy intellekt tarjimasining shunchaki tahrirsiz chop etilishi mediamatnlar tarjimasida sifatining pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Demak, sifatli tarjimaning ta’minlanishi va auditoriyada ishonch uyg‘otishi uchun tarjima albatta tahrirdan o‘tishi lozimdir.

Mediamatnlar tarjimasida jarayonida tarjimon bir qator muammolarga yo‘liqib, ushbu muammolar, avvalambor, tarjima jarayonida hal qilinishi lozim. Undan keyingi tahrir bosqichida bo‘lsa tahrirchining vazifasi bu muammolarning tarjima matnida mavjud emasligini tekshirish va ular uchragan hollarda xatolarni bartaraf etishdan iborat. Mediamatnlar tarjimasida uchraydigan asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Leksik muammolar – ushbu muammolar qatoriga ko‘p ma’noli so‘zlar, ya’ni polisemiya, terminlar, neologizmlar hamda qisqartmalar (abbreviaturalar) kiradi.

Semantik muammolar – tarjimada asosan ma’no siljishi, yanglish ekvivalent tanlanishi hamda so‘z birikmalari tarjimasida bilan bog‘liq semantik muammolar uchraydi.

Pragmatik muammolar – asosiy pragmatik muammolar sifatida tarjimoni auditoriyaga moslash, madaniy moslik hamda matnning kommunikativ maqsadini yetkazib bera olish kiradi.

Uslubiy muammolar – tarjimada uslubiy muammolar keng uchrab, ular asosan matnning uslubi, ya’ni rasmiyligi, publitsistik ohanggi hamda emotsional birliklarni yetkazib berishdagi qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi.

Mashina tarjimasida muammolari – mashina yoki sun’iy intellektda tarjima qilingan matnlar asosan mashina tarjimasida tahrirdan o‘tadi va bu jarayonda so‘zma-so‘z tarjima qilinishi, so‘z birikmalarining yanglish kalkalanishi, yanglish termin qo‘llanilishi yoki gap strukturalarining sun’iy tarzda shakllantirilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Mediamatnlar tarjimasida boshqa tarjima turlaridan farqli o‘laroq, birinchi navbatda, tezkorlik xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Ya’ni mediamatnlar bilan ishlaydigan tarjimonlardan berilgan kontentni soatlar, hattoki daqiqalar ichida ikkinchi tilga o‘girib berish so‘raladi. Bu jarayon avtomatik ravishda tarjimonlardan mashina tarjimasida yoki sun’iy intellekt platformalari yordamiga tayanishni talab qiladi. Aynan mana shu hollarda, tahrirchining roli juda muhim hisoblanadi. Muharrir ko‘pincha muallif bilan o‘quvchi o‘rtasidagi “dallol”, “hakam”, yoki “vositachi” vazifasini bajaradi. Tarjimada esa ba’zi hollarda tarjimon va muharrir vazifasini bir vaqtning o‘zida bir inson bajarishi ham mumkin. Tahrirlash jarayoni quyidagi ko‘rinishda amalga oshadi:

² <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/mavzu-mediamatn-tushunchasi-haqida-mediamatn-asosiy-toifalari/>

Asl matn

Tarjima

Tahrir

“Muharrirning asosiy vazifasi muallif fikrini aniqlashtirish va chuqurlashtirish, u yaratgan asar shaklini mukammallashtirishdan iborat”³. Bugungi kunda tarjimani sun’iy intellekt platformalari yoki mashinalar ham bajara olayotganini hisobga olsak, tahrirchining vazifasining dolzarbligi hamda haqiqiy tahrirchilarga bo’lgan talab oshib bormoqda. Nazarimizda nafaqat mediamatnlar tahriri bilan shug’ullanadigan tahrirchi, balki barcha tahrirchilar quyidagi xususiyatlarga ega bo’lishi lozim:

- tahrirlash uslubi va usullariga ega bo’lishi;
- matnni o’z ko’zi bilan qabul qila olishi;
- filologik tadqiqotlarga moyil bo’lishi;
- til bilimiga ega bo’lishi.

“Tajribali muharrir o’qigan matnini, undagi har bir fikrni shunchaki ma’lumot sifatida emas, balki o’ziga xos voqelik tarzida qabul qiladi, uning mazmuniga chuqur va tadrijiy suratda kirib boradi, uning barcha unsurlarini aniq tasavvur etadi”⁴. Bu muharrir uchun “kerak” emas, “shart” bo’lgan xususiyatlardan biri hisoblanib, aks holda muharrirning “muharrir” rolini emas, “tarjimon” rolida qoladi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish yoki mediamatnlar tarjimasining bu kabi xatoliklardan xoli ekanligini tekshirish tahrirchining vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, mediamatnlarni tahrirlash jarayonida tarjima sifatini tekshirish hamda xatoliklardan xoli ekanligini aniqlashtirishdan tashqari, tahrirchilar oldida yana bir vazifa turadi. Adabiy va publitsistik matnlar tahriri jarayonida matnni doimo qisqartirishga to’g’ri keladi. D.M. Teshabayeva ta’rifi bilan aytganda, ular “qisqartirishga mahkum etiladi”. Bu holatda muharrir cho’zib tarjima qilingan jummalarni qisqartirishiga, ortiqcha so’zlarni olib tashlashiga, fikrlarning aniq va lo’nda tarzda tarjima tiliga o’girilishini kuzatishi lozim. Shuningdek, u mazmun takrorlanishlari, bir xil misollar, keraksiz izohlar va tafsilotlarni olib tashlashi hamda tushunarsiz jummalarni izohlashiga to’g’ri keladi. Keraksiz ma’lumotlarni olib tashlash o’z ichiga tarjima qilinayotgan auditoriya uchun zarur bo’lmagan yoki kerak bo’lmagan ma’lumotlarni olib tashlashni ham o’z ichiga oladi. Tarjima tilida ma’lumotning olib tashlanishi yoki qo’shimcha ma’lumotning kiritilishi matbuot yoki nashriyotning ichki qoidalaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ya’ni tahrirchi va tarjimon ular tomonidan o’rnatilgan qoidalarga amal qilgan holda jarayonni amalga oshiradilar.

Lekin mana shu qisqartirish jarayonidagi yana bir muhim jihatlardan biri olib tashlanayotgan ma’lumotning “yo’qolib qolganligi” yoki “olib tashlanganligi” ni tarjima matnida sezdirmaslik va o’rnini to’ldira olish shart. Bu ham muharrirning vazifalari qatoriga kirib, ular uslub va janrga xos konkret mazmundagi matnni nutq birliklari orqali munosib ifodalanishi va ulardagi mutanosiblikni o’z nazoratiga olishi zarur.

Quyida muharrir tarjima tahririni amalga oshirish jarayonida e’tibor qaratishi lozim bo’lgan jihatlar tahlil qilinadi. Ushbu jihatlar umumiy tahrirchining vazifalari bilan ham kesishib

³ Тешабаева, Д. М., Г.Х.Бакиева., М.И.Исроил ва бошқ. Медиалингвистика ва таҳрир. – Т.: О‘zbekiston, 2019. – Б. 453.

⁴ Тешабаева, Д. М., Г.Х.Бакиева., М.И.Исроил ва бошқ. Медиалингвистика ва таҳрир. – Т.: О‘zbekiston, 2019. – Б. 196.

ketganligi tufayli, quyida keltirilgan ba’zi xususiyatlarni keltirishda “Medialingvistika va tahrir” kitobida keltirilgan muharrirning vazifalari sifatida sanalgan jihatlarga ham tayanildi.

1. Jummalarning ekspressivligi. Publitsistik uslubdagi matnlarda tahrirni amalga oshirish jarayonida yana bir muhim xususiyatlardan biri bu bunday usuldagi jummalarning, odatda, juda bo’yoqdor bo’lishi, ekspressiya va tasviriylikning yuqori bo’lishi inobatga olish lozim. Tahrirchi bu o’rinda tarjima tilida ham aynan shu bo’yoqdorlikning munosib tilda va uslubda tarjima tiliga yetkazib berilganligini nazorat qila olishi zarur.

2. Sinonimlardan foydalanish, o’xshash jummalardan qochish.

3. So’zlardan foydalanish tabiati va usuli. Badiiy asarning bosh maqsadi borliqni obrazli ifoda etish, publitsistik nutqda esa bosh maqsad borliqni obbrasli ifoda etish, mazmundorlik, ifodaning qat’iyligi, emotsionalligi asosiy jihatlardan biri hisoblanadi.

4. Uslubga mos qoliplardan foydalanish. Ayniqsa, gazeta, intervyu, xabar, post va shu turdagi materiallarda o’zining yozilish “qolipi” mavjud bo’lib, tahrirchi jarayonda uni ta’minlashi yoki tahrirlash jarayonida undan chiqib ketmasligi lozim. Bu qoliplar avvaldan tayyorlangan, “o’z janrlari, tilidan iborat nutqiy qoliplar hisoblanadi”.

5. Chet so’zlarga e’tibor berish. Tarjima tahririni amalga oshirish mobaynida, garchi muallif chet tilidagi so’zlarni ishlatishni yoqtirsa ham yoki tarjima tilida bu tushunchalar mavjud bo’lmasa ham iloji boricha tarjima qilish jarayonida ona tilidagi sof “o’zbekcha” so’zlarning qo’llanilishiga e’tibor qaratish lozim.

“Amalda barcha axboriy janrlarda barcha dalillar silliqashtirib taqdim etiladi”⁵. “Matn qurilishiga ko’ra kulminatsion nuqta eng boshida, yechim xulosa qismida taqdim etiladi. Tarkibiy xilma-xillik tahliliy va badiiy-publitsistik materiallarga xosdir”⁶. Matnning qurilishida dolzarb voqelik maqola boshida, kuchsizroq holatlar maqola so’nggi tomonga qarab beriladi. Nihoyat, matn oxirida ham kuchli dalillar keltiriladi. Buni Teshabayeva “aylanma kompozitsiya” deb ataydi, unga ko’ra ma’lumot tarkibining bir qismi sarlavha majmuasi, ya’ni sarlavha, sahifa va tagsarlavhada, qolgan qismi esa matnning qolgan qismida beriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mediamatnlar tarjimasi va tahriri o’zaro bir-biriga uzviy bog’liq jarayonlar hisoblanib, ushbu jarayonlarning to’liq amalga oshirilishi tarjima sifatining to’liq ta’minlanishiga xizmat qiladi. Mediamatnlar tarjimasida tezkorlik muhim bo’lganligi sababli, tahrirlash turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Mediamatnlar o’zining alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham mediamatnlar bilan ishlaydigan har bir tarjimon hamda tahrirchidan ma’lum bir ko’nikmalar talab qilinadi. Tarjima jarayonida tarjimon bir qator tarjima muammolarini inobatga olishi va ularni bartaraf etishga harakat qilishi lozim bo’lsa, tahrirchining roli tarjima matnining mana shu muammolardan xoli ekanligini tekshirish va shu bilan bir qatorda matndagi bir qator xususiyatlarni tekshirishdan iboratdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shamaksudova S. X. Mediamatn shakllanishidagi asosiy talablar // O’zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 5. — B. 37-50. <https://doi.org/10.36078/1732775727>
2. Тертычный А.А. Аналитическая журналистика: познавательно-психологический подход. – М. : Аспект Пресс, 2005. – С. 311.

⁵ Тертычный А.А. Аналитическая журналистика: познавательно-психологический подход. – М. : Аспект Пресс, 2005. – С. 311.

⁶ Тешабаева, Д. М., Г.Х.Бакиева., М.И.Исроил ва бошқ. Медиалингвистика ва тахрир. – Т.: О’zbekiston, 2019. – Б. 452.

3. Тешабаева, Д. М., Г.Х.Бакиева., М.И.Исроил ва бошқ. Медиалингвистика ва таҳрир. – Т.: O'zbekiston, 2019. – Б. 452.
4. <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/mavzu-mediamatn-tushunchasi-haqida-mediamatn-asosiy-toifalari/>